

POETS FOR CENTURIES

Matkarimova Feruzabonu Alijon qizi,
Student of Osh State National University.

Annotation: Loyalty, devotion, suffering, lines of love, analysis in the poems of Zulfiya Israilova.

Keywords: "She'rlar" and "Qizlar qo'shig'i" (1938), "Uni Farhod der edilar" (1943), "Hijron kunlarida" (1944), "Dalada bir kun" (1948), "Tong qo'shig'i" (1953), "Yuragimga yaqin kishilar" (1958), "Kuylarim sizga" (1965), "O'ylar" (1965), dozens of collections of poetry, such as "Shalola" (1947) and etc.

ASRLAR OSHA HAMNAFAS SHOIRLAR

Matkarimova Feruzabonu Alijon qizi,
O'sh Davlat Milliy Universiteti talabasi

Anatatsiya: Zulfiya Isroilova she'rlarida vafo, sadoqat, jafakorlik, muhabbat satrlari, tahlili.

Kalit so'zlar: "She'rlar" va "Qizlar qo'shig'i" (1938-yil), "Uni Farhod der edilar" (1943-yil), "Hijron kunlarida" (1944-yil), "Dalada bir kun" (1948-yil), "Tong qo'shig'i" (1953-yil), "Yuragimga yaqin kishilar" (1958-yil), "Kuylarim sizga" (1965-yil), "O'ylar" (1965-yil), "Shalola" (1947-yil) kabi o'nlab she'riy to'plamlari chop etilgan.

Toshkentdagi degrez oilasida bir qizaloq tug'ildi, olamga teng quvonch-u tashvishlar bilan adabiyotga yangi bir sohir ovoz kirib kelayotganidan darak berar edi. Zulfiya! Birgina shu ismning o'zigina katta bir davrni, unda yashab o'tgan Hamid Olimjon, Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Mirtemir, G'ayraty, Asqad Muxtor va boshqa ulug' bir ustozlarni yodga soladi. Zulfiya she'rlarida samimiylik, o'ziga xoslik, yurakka yetib boruvchi oddiylik, 17-yoshida "Hayot varaqlari" nomi bilan 1932-yilda bosilib chiqqan. Zulfiya har bir she'ri yaralishida chuqur, salohiyat, bilim, o'quvchida adabiyotga bo'lgan toza ruhni uyg'onishiga sabab bo'lgan she'rlaridan biri;

Salqin saharlarda bodom gulida,
Binafsha labida, yerlarda bahor.
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor.

Qancha sevar eding, bag'rim, bahorni,
O'rik gullarining eding maftuni,
Har uyg'ongan kurtak hayot bergan kabi,
Ko'zlaringga surtib, o'parding uni.

Bahorning fusunkor manzaralari, betakror nafasidan ilhomlanib kishida paydo bo'ladigan turli o'yinlar, qiyos va o'xshashliklar ta'siridagi hayot hodisalari, tabiat va inson kechmishlari

xususidagi mulohazalardir. Ayni chog'da Zulfiyaning bahor haqidagi she'rlari orasida bittasi borki, undan avvalgilaridan farqli, shoira she'riyatidagi jonlantirish san'atidan mahorat bilan foydalanilib, dunyodan o'tib ketgan yaqin odamning sog'inchi, xotirasini qalamga oladi. Bu yaqin odam Zulfiya opaning turmush o'rtog'i, otashnafas shoir Hamid Olimjon edi.

Hamid Olimjon o'tli satrlari, ballada va dostonalari, uni o'qigan kitobxonda o'zgacha tasavvur paydo qila olishi, tufayli "baxt va shodlik" kuychisi, deya atagimiz keladi. "O'rik gullaganda" deb nomlangan mashur she'ri borligini hamda Hamid Olimjon ayni navqiron o'ttiz besh yoshida, avtomobil halokati tufayli 1944-yilda vafot. Zulfiya she'riyat muhlislariga "Bahor keldi seni so'roqlab" she'ri bilan baxt va bahor haqida jo'shib kuylagan yori-turmush o'rtog'I Hamid Olimjonning hayotini, she'rlarini eslatadi.

**Mana, qimmatligim, yana bahor kelib,
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.
Qishning yoqsidan tutib so'radi seni,
Ul ham yosh to'kdi-yu, chekildi nari.**

**Qani o'sha kuychi, xayolchan, yigit,
Nechun ko'zingda yosh, turib qolding lol.
Nechun qora libos, sochlaringda oq,
Nechun bu ko'klamda sen parishonxo.**

Hayotsevarlik, umidbaxsh tuyg'ular "Baxtim bor, ajoyib kishilar aro..." satri bilan boshlanuvchi she'rning bosh mavzusi. Shoira yoshi oltmishlardan o'tib, keksalik boshlanishi pallalrida yozgan mazkur she'rda umri har qancha qiyinchilik, judolik va ayriliqlarga qaramay, yaxshi insonlar orasida kechganini, shukronalik hislarini qalamga oldi. Shoira umri davomida; "She'rlar" va "Qizlar qo'shig'i" (1938-yil), "Uni Farhod der edilar" (1943-yil), "Hijron kunlarida" (1944-yil), "Dalada bir kun" (1948-yil), "Tong qo'shig'i" (1953-yil), "Yuragimga yaqin kishilar" (1958-yil), "Kuylarim sizga" (1965-yil), "O'ylar" (1965-yil), "Shalola" (1947-yil) kabi o'nlab she'riy to'plamlari chop etilgan.

Zulfiya butun umrini, hayotini ijodga bag'ishladi. Turmush o'rtog'ining vafotidan so'ng, uning "Semurg", "Zaynab va Omon" dostonlari asosida, pyesa va opera librettolarini yaratadi. O'zi ham "Quyoshli qalam", "Mushoira", "Xotira siniqlari" kabi poemalar yozadi. Rus, ukrain, ozarbayjon, hind shoirlarining she'rlarini o'zbek tiliga tarjima qiladi.

**Bu oqshom porillar dil nuringgizda,
Diydor baxti nasib yana siz bilan.
Turibman, azizlar, huzuringgizda,
Hamon o'tlig' ko'ngil, yorug' yuz bilan...**

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zulfiya, (she'rlar, poemalar,) Toshkent, 1996-yil,
2. Hamid Olimjon, "O'rik gullaganda", Toshkent Nashriyoti, 1999-yil,
3. kknews.uz
4. tgstat.com> Mart gullari